

Turgunova Sitoramo Abduvali qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: **Rashid Zahidov**
filologiya fanlari doktori

“TURKISTON VILOYATI GAZETI”DA TIL SOFLIGINI SAQLASH VA UNI YANGI SO'ZLAR BILAN KENGAYTIRISH HAQIDA

Annotatsiya: XX asr boshlarida Turkistonda yuz berayotgan o'zgarishlar davrida vaqtli matbuotda turli-tuman xabarlar bosilib chiqardi. Jadidchilar adabiy tilni rivojlanishiga e'tibor qaratdilar. Zamon bilan hamnafas yashab, chet davlatlardan andoza olib, o'zimizning tilimizni shu tariqa yuksaltirish – asosiy vazifalardan biri sifatida qarash kerak. Millatni ravnaq toptirish, eng avvalo, uni o'z tiliga egalik qila olishidan boshlanadi.

Kalit so'zlar: Turkiston, gazet, matbuot, panturkizm, ibora.

Annotation: During the changes taking place in Turkestan at the beginning of the 20th century, various news items were published in the contemporary press. Jadidists paid attention to the development of the literary language. Keeping pace with the times, taking inspiration from foreign countries, and thus improving our own language should be considered one of the main tasks. The development of a nation begins, first of all, with its ability to master its own language.

Keywords: Turkestan, newspaper, press, pan-Turkism, phrase.

XIX asr oxirlari XX asr boshlari mamlakatimiz hayotida tub burilishlar yasadi. Xiva xonligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi tugatilib, Turkiston general gubernatorligi tuzilishi va Sovet hokimiyatining o'rnatilishi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda bir qancha o'zgarish va yangilanishlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ayni shu davrda Markaziy Osiyo ziyolilari orasidan yangi vakillar – jadidlar ko'paya boshladi. Ma'rifatni yuksatirish niyatida bo'lgan yurtdoshlarimiz matbuotga e'tiborlarini qaratdilar. Turkistonda bir qancha gazeta va jurnallar nashr etila boshladi.

Matbuotning yo'lga qo'yilishi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun ham qulay imkoniyat yaratdi. Avvalo, jadidlar xalqimizning ajoyib ma'naviy merosi bo'lgan til masalasiga alohida e'tibor berdilar. Chunonchi, O'rta Osiyoda borgan sari panturkizm harakati – turkiy xalqlarni Turkiya davlati qo'li ostida birlashtirish kuchaymoqda edi. Maktablarda turk tilini ona tili sifatida o'qitilishi ham bunga bir misol.

بعضی کزیتلارده ترکی تیل لارینی برلاترماقغه حرکت ایلاب بولکونلارده بر خیل ترقی برور نوغایلار اوز تیل لاری خصوصیده ایکی خیال قیلادور

Bu yerda keltiriladiki, “ba’zi gazetlarda turkey tillarini birlashturmoqg’a harakat aylab bulkunlarda bir xil taraqqiyparvar no’g’aylar o’z tillari xususida ikki xayol qiladur.” Turkiy tillarni birlashtirmoq deb bir qancha tillar nazarda tutilmoqda va millatning ikki xil o’yi borligi ularni boshqa-boshqa jamoalarga ajratib yubordi. Ammo muallif bu haqida emas, tilning jamiyatda tutgan ahamiyati haqida yozishni Afzal biladi.

زیراکه خداوند کریم هر قیو طایفه غه علاهده اصل تیل و زهن عطا قیلیب اول اصل تیل نی تمام عمری ایچیده استعمال قیلاده

“Zeroki, xudovandi karim har qayv (qaysi) toifag’a alohida asl til va zehn ato qilib, ul asl tilni tamom umri ichida iste’mol qiladi.” Darhaqiqat, Alloh Taolo har bir insonga til va aql-idrokni ato qilar ekan, bashariyat umri davomida shu tilda so’zlashadi, muloqot qiladi.

Tilimiz sofligini saqlash unga to’g’ri kelgan-kelmagan so’zlarni qo’shishga yo’l qo’ymaslikni anglatadi. XX asrga kelib, ko’plab mamlakatlar, xususan, Yevropa mamlakatlari har tomonlama yuksalayotgan davrda, Turkistonda tilshunoslik masalalari avj ola boshlaydi.

مثله یاورویاداگی ترتیب لیک ابرازواننی خلق چنانچه نیمیتس انگلیس فرانسوز روسیه و باشقه خلق لار اوز اصل تیل لارینی اوزکارتمای لیکین کرک بولغان یئکی عبارت لارینی الیب اصل تیلینی کینکایتوروب و کمالات درجه سیغه کوتارادورلار

“Masalan, Yevrupodag’I tartiblik, obrazovanniy xalq, chunonchi, nemits (nemis), ingliz (ingliz), fronsuz(fransuz), russiya (rus) va boshqa xalqlar o’z asl tillarini o’zgartmay (o’zgartirmay) kerak bo’lg’on yangi iboratlarni olib, asl tilini kengayturub va kamolot darajasig’a ko’taradurlar.” Yuqorida ta’kidlangan ingliz, nemis, fransuz va rus tillarining ravnaq topish siri – uni sofligini saqlab qolgan holda, chetdan kirgan so’z va iboralarni o’zlarining tillariga o’girib, uni yanada kengaytirishar ekan.

حتی که قدیمی اصر لارداکیغه قراب قیاس قیلغانده بولکونلارده استعمال بولینادورکان مذکور خلق لارنیک تیل لاری نهایت درجه غنی یعنی سوز و عبارت لارنی کوپ رونق لیک بولوب هر خیلی یئکی فکر و خیال اوچون و هر خیل تصنیفات قیلمق اوچون بتون بتون کفایه قیلادور

“Hattoki, qadimgi asrlardagig’a qarab qiyos qilg’anda, bulkunlarda iste’mol bo’linadurgan mazkur xalqlar tillari nihoyat daraja g’ani, ya’ni so’z va iboratlarni ko’p ravnaqlik bo’lub, har xili yangi fikr va hayol uchun va har xil tasnifot qilmoq uchun butun-butun kifoya qiladur.” Ushbu ma’lumotdan ko’rinib turibdiki, xalq asta-sekin boshqa mamlakatlarda ahvol qay darajada ekanligidan qisman bo’lsa-da boxabar bo’la boshlagan va shu orqali qiyoslanib, kerakli xulosalar chiqarilgan.

اوشل طایفه ایچیده هم هر خیل اوروغ قبیله بولوب آلارنی تیل لارینی هم فرقی بولادور چنانچه سرت نوغای قزاق ترک بولارنی هر قیولارینی تیل لاریده کته فرق بار چغتای ترک ازبیجان ترکی تاتار ترکی استنبول ترکی قدیم الایامدین بویان هر قیولاری اوز شیوه و اوز زبان و رسم لاریده سوزلاب و اوز تیل لاریده تصنیفات لار قیلکاندور

“O’shal toifa ichida ham har xil urug’, qabila bo’lub olarni (ularni) tillarini ham farqi kattadur. Chunonchi, sart, no’g’ay, qozoq, turk bularni har qayvlarini tillarida katta farq bor, chig’atoy, ozarbayjon, turkiy tatar, turkiy Istanbul, turkiy qadim olayomdin buyon har qayvlari o’z sheva va o’z zabon va rasmlarida so’zlab o’z tillarida tasnifotlar qilgandur.”

Muallifning fikricha, har bir til alohida-alohida bo’lsagina sayqallanadi, ravnaq topadi. Har bir millatning o’z tili bor va har kim uning ustida izlanish olib borsa rivojlanish bo’ladi. Yangi kirib kelgan so’zlarni esa o’z tiliga tarjima qilib, tilning leksikasini boyita borish kerak.

Xulosa qilib aytganda, til sofligini saqlash har bir millat kelajagi va ravnaqi uchun poydevor vazifasini o’taydi. Yuragida ona tiliga muhabbati bor bo’lgan har bir inson uning sofligi, purma’noligi, ta’sirchanligi, boyligiga o’z hissasini qo’shishi kerak. Ushbu g’oyalarni xalq ongiga singdirishda davriy matbuot, xususan, “Turkiston viloyati gazetisi” muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqlar tarixi – bu tilning tarixi demakdir. Millatlarni ajratib turuvchi asosiy belgi ham bu aynan til hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi, Toshkent – “O'zbekiston” – 2002;
2. Turkiston viloyati gazetisi, 1908-yil 76-soni;
3. N.A.Abduazizova. Turkiston matbuoti tarixi – Toshkent, - 2000;
4. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik, Toshkent – 2010;
5. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. – O'zbekiston tarixi, Toshkent – “Iqtisod-moliya” – 2006;
6. A.T.Jo'rayev. Turkiston matbuoti tarixi (XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragi). – diss. Namangan - 2011